

ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI BOLALAR XIRURGIYASI KAFEDRASI



**Kafedra mudiri, tibbiyot fanlari
nomzodi, dotsent**
**MIRZAKARIMOV BAXROM
XALIMJONOVICH**

Ish vaqti: 8:00 – 15:00.

Tel: +99891-606-12-73

e-mail: baxromjon1973@umail.uz

BOLALAR XIRURGIYASI TARIXI VA FAOLIYATI

Bolalar xirurgiyasi kafedrasining tashkil etilishi 1972-yil sobiq Ittifoq Sog‘liqni saqlash Vazirligining "Bolalarga xirurgik xizmatni takomillashtirish" ga bag‘ishlangan buyrug‘I bilan bevosita bog‘liq. 1972-yillargacha bolalar xirurgiyasi Andijon davlat tibbiyot institutining “2-fakultativ xirurgik kasalliklar” kafedrasida faoliyat ko‘rsatgan. 1972-yil avgust oyida Andijon davlat tibbiyot instituti rektorining buyrug‘iga asosan “Bolalar xirurgiyasi kursi” tashkil etilgan. Kurs mudiri etib dotsent Sultonboy Rahimovich Rahimov tayinlangan. Kafedrani shakllantirishda yosh assistentlardan Qurbonov Abduqaxxor Qurbonovich, Akbarov Nosirjon Akbarovich va Rasulov Yorqinjon Muxamadaminovichlar xizmatini aloxida takidlash lozim. Bolalar anesteziologiyasi va reanimatologiyasi xizmatini tashkil qilish va rivojlantirishda assistant Inamova Svetlana Tursunxodjaevnani xizmatlari katta bo‘lgan.

Dotsent S.R. Raximov 1982-yilda Leningrad davlat pediatriya institutida professor G.A.Bairov rahbarligida “Xirurgicheskaya lecheniya xronicheskogo gemotogennogo osteomielita u detey” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan.

1991-yilga kelib kafedra o‘quv yuklamalarining va ish hajmining ortishini hisobga olgan holda bolalar xirurgiyasi kafedrasida pediatriya va davolash fakultetlari uchun kengaytirilib, davolash fakulteti yo‘nalishiga professor Klichev Baxtiyor Mirzajonovich kafedra mudiri etib tayinlangan.

Kafedra bolalar jarrohligida dolzarb bo‘lgan bolalar yiringli septik kasalliklar, anorektal soha tug‘ma nuqsonlari, ko‘krak qafasi deformatsiyalari, bolalarda portal gipertenziya, uroginekologik xastaliklar yo‘nalishlarida ilmiy va amaliy izlanishlari o‘z

natijalarini bera boshladi. Professor Klichev B.M. rahbarligida kafedra assistenti Raximov B.S. 1999-yili nomzodlik dissertatsiyasini ximoya qildi. Professor B.M. Klichevning bevaqt vafotidan so'ng kafedra mudiri lavozimida dotsent Adxam Anvarovich Gafurov faoliyat olib bordi.

Gafurov A.A. 1991 yilda professor A.I. Lenyushkin rahbarligida "Reabilitatsiya detey s dvustoronnimi xronicheskimi nespetsificheskimi vospalitelnimi zabolevaniyami legkix" mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. Gafurov A.A. o'z ilmiy izlanishlarini davom ettirib 2009-yilda professor M.M. Aliev rahbarligida "Xirurgicheskaya korreksiya na rushenie organnogo krovo I limfoobrasheniya pri sirroze pecheni u detey» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi.

Bolalar jarroxligi fanidagi umumlashtirishlar xisobiga kafedra 2004-yildan ikkala fakultet bolalar xirurgiyasi kafedrasini birlashtirilib dotsent Bobir Sultonovich Raximov kafedra mudiri etib tayinlandi.

B.S. Raximov 1999-yil, professor B.M. Qlichev rahbarligida, V. Vohidov nomidagi Respublika Xirurgiya Ilmiy Markazida "Sravnitelnaya otsenka effektivnosti kompleksnogo lecheniya kalkuleznogo pielonefrita u detey" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. 2014-yildan kafedraga "Bolalar xirurgiyasi, anesteziologiya-reanimatologiyasi" nom berildi.

G'.O'.To'ychiev 2004-yil, V. Vohidov nomli Respublika Xirurgiya Ilmiy Markazida professor M.M. Aliev rahbarligida "Gemodinomicheskie aspekti sosudoshuntiruyushix operatsiy pri sirroze pecheni s portalnoy gipertenziyey u detey» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi.

Kafedra jamoasi o'z oldiga qo'ygan maqsadlarni amalga oshirishda Rossiyaning etakchi xirurgik klinikalari bilan o'rnatilgan ilmiy aloqalar muxim o'rin tutdi. Professor G.A. Bairov rahbarligi ostida 1979-yilda S.R. Raximov "Xirurgicheskoe lecheniye xronicheskogo gematogennoy osteomieli u detey" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini, so'ngra 1984-yilda J.U. Djumaboev "Xirurgicheskoe lecheniye vrojdennoy voronkoobraznoy deformatsii grudnoy kletki u detey doshkolnogo vozrasta" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildilar.

Professor A.I. Lyonyushkin rahbarligi ostida B.M. Qlichev 1990-yilda doktorlik dissertatsiyasini va A.A. Gafurov 1991-yilda nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildilar.

2009-yil professor Aliev M.M. rahbarligi ostida A.A. Gafurov Rossiya Davlat tibbiyot universitetida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

Kafedra ikkita bazada joylashgan bo'lib, bittasi RSHTYOIMning Andijon filialida va ikkinchisi viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazida faoliyat yuritib kelmoqda.

A.K. Kurbanov 1986-yilda professor S.R. Raximov rahbarligida 2-Moskva Lenin ordenli meditsina institutida "Prognozirovaniye variantov klinicheskogo techeniya I isxodov flegmoni novorojdennix" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi.

N.A.Akbarov 1999-yilda professor S.R.Raximov rahbarligida V.Voxidov nomidagi Respublika xirurgiya ilmiy markazida “Xirurgicheskaya taktika pri dvustoronnem nefrolitiaze u detey” mavzusida nomzodlik dissertat siyasini yoqladi.

M.Ya.Allayev 1990-yilda Toshkent davlat tibbiyot institutida, professor I.Q.Qosimxo‘jaev rahbarligida “Anatomiya I topografiya vilochkovoy jelezi u cheloveka v ante – i postnatalnom ontogeneze» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi.

SH.O.Toshboev 2009-yilda Toshkent tibbiyot akademiyasida, professor A.V. Alimov rahbarligida “Optimizatsiya metodov diagnostiki I terapii ostrogo narusheniya krovoobrasheniya u detey rannego vozrasta” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi.

B.X.Mirzakarimov 2010-yil. V.Voxidov nomidagi Respublika Xirurgiya Ilmiy Markazida, professor X.A.Akilov rahbarligida “Optimizatsiya metodov diagnostiki I korreksii grudnoy kletki u detey pri eyo voronkoobraznoy deformatsii” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi.

2019yil yanvar oyida mustaqil izlanivchi K.S.Yulchiyev V.Voxidov nomidagi Respublika Xirurgiya Ilmiy Markazida, professor X.A.Akilov rahbarligida “Bolalarda ko’krak qafasi kilsimon deformatsiyalarida xirurgik korreksiyalash samaradorligini oshirish” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi

2019 yil may oyida kafedra tayanch doktoranti J.X.Ibragimov Respublika Shoshilinch Tez Tibbiy yordam Ilmiy Markazida professor X.A.Akilov rahbarligida “Bolalarda ichak bitishmali ichak tutilisi diagnosnikasi va profilaktikasini optimallashtirish” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi.

2021 yil noyabr oyida kafedra assistenti mustaqil izlanuvchi K.Z.Kadirov Toshkent Tibbiyot Akademiyasida professor R.Isroilov rahbarligida “Bolalarda immune tanqislik xolatidagi zotiljamning patologik anatomiyasi” mavzusida (PhD) nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi.

2021 yil dekabr oyida kafedra assistenti mustaqil izlanuvchi Sh.T.Bozorov Samarqand davlat tibbiyot institutida professor M.M.Aliyev rahbarligida “anorektal rivojlanish nuqsonlari aniqlangan bolalarda preventiv kolostomalar o’rnatish uchun ko’rsatmalar va ularni tanlash” mavzusida (PhD) nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi.

Hozirgi kunda kafedraga Mirzakarimov Baxrom Xalimjonovich rahbarlik qilib kelmoqda.



KAFEDRA JAMOASI

Kafedra professor-o'qituvchilarining ro'yxati

№	F.I.Sh.	Ilmiy darajasi va lavozimi
1	Mirzakarimov Baxromjon Xalimjonovich	<i>Kafedra mudiri, t.f.n.dotsent</i>
2	Gafurov Adxam Anvarovich	<i>t.f.d dotsent</i>
3	Kurbanov Abduqahhor Kurbanovich	<i>t.f.n, dotsent</i>
4	Akbarov Nosirjon Akbarovich	<i>t.f.n, dotsent</i>
5	Djumaboyev Juraqul Usmonovich	<i>t.f.n, dotsent</i>
6	Allayev Mamasoli Yahyoyevich	<i>t.f.n, dotsent</i>
7	Tuychiyev Golibjon O'rmonovich	<i>t.f.n, dotsent</i>
8	Yulchiev Karimjon Salimjonovich	<i>PhD assistent</i>
9	Ibragimov Jasurbek Xabibjanovich	<i>PhD assistent</i>
10	Bozorov Shavkatjon Tojiddin o'g'li	<i>PhD assistent</i>
11	Qadirov Komiljon Zakirdjanovich	<i>PhD assistent</i>
12	Mamajonov Umidjon Shokirovich	<i>katta o'qituvchi</i>
13	Abduvalieva Cho'lponoy Muxammadjonovna	<i>assistent</i>
14	Xalilov Shukurillo Qo'chqorboevich	<i>assistent</i>
15	Yuldashev Muzaffar Abduvaxobovich	<i>katta o'qituvchi</i>
16	Karimov Doniyor Karimovich	<i>assistent</i>
17	Ketmonov Alisher Gayratovich	<i>assistent</i>
18	To'raqulov Zoirjon Shokirovich	<i>assistent</i>
19	Abduraxmonov Akmaljon Hoshimovich	<i>assistent</i>
20	Isaqov Nuritdin Zuxritdinovich	<i>assistent</i>
21	Abduraxmonov Farruxbek Saidazim o'g'li	<i>assistent</i>
22	Adjimamamtov Xalilillo Toshtemirovich	<i>assistent</i>

Xozirgi vaqtda kafedra mudiri B.X. Mirzakarimovning doktorlik dissertatsiyasi mavzusi OAK ning kordinatsion kengashida tasdiqlandi xamda izlanish nixoyalash arafasida. Kafedra xodimlari tomonidan bolalar xirurgiyasi amaliyotiga bolalar portal gipertenziyasida yangi shuntlovchi operatsiyalar, ko'krak qafasi va siydik ajratuv tizimida, qorin bo'shlig'i va oraliq soxasida rekonstruktiv-plastik operatsiyalar kiritildi.

Kafedrada o'qitilayotgan fanlar

Tibbiyot kasbiga kirish - birinchi kurs pediatriya va davolash fakulteti talabalari

Bolalar xirurgiyasi - to'rtinchi kurs pediatriya fakulteti talabalari

Fakultet bolalar xirurgiyasi- beshinchi kurs pediatriya fakulteti talabalari

Urologiya va bolalar urologiyasi- beshinchi kurs pediatriya fakulteti talabalari

Bolalar xirurgiyasi – oltinchi kurs pediatriya fakulteti talabalari

Bolalar xirurgiyasi – beshinchi kurs davolash va kasb talimi fakulteti talabalari

TALABALAR AMALIYOT JARAYONIDA



AMALIY MASHG'ULOTLAR JARAYONI

